V. Y. Uvarova

Tasviriy san’at

4-sinf

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik



Yangi nashr

Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi
Ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan

TEKSHIRILGAN
PLAGIATGA QARSHI!
TEKSHIRILGAN

novda
edutainment

Toshkent – 2026

UO‘K: 75.02:373.016(075.3)
KBK 85.14ya721
U 14

Taqrizchilar:

G. F. Buzikova – Toshkent shahridagi 190-umumiy o‘rta ta’lim maktabining birinchi toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi;

O. Sh. Yevstafeva – Toshkent shahridagi 190-umumiy o‘rta ta’lim maktabining oliy toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

Shartli belgilar



Yangi materialni o‘rganing



Amaliy ish



Savollarga javob bering



Dars yakuni

Darslarda sizga quyidagilar kerak bo‘ladi:

- rasm daftari;
- oddiy qalam;
- o‘chirg‘ich, qalam ochqich;
- rangli qalamlar;
- flomasterlar, guash;
- akvarel bo‘yoqlari;
- neon bo‘yoqlar;
- mumli bo‘rlar, yelim;
- asfalt uchun bo‘rlar;
- turli qalinlikdagi mo‘yqalamlar;
- suv uchun stakancha;
- qora rangli rassomchilik qog‘ozi;
- palitra, qog‘oz sochiqlar;
- fartuk va yengchalar.



ISBN 978-9910-586-92-7

© V. Y. Uvarova
© “Novda Edutainment”, 2026

“Go‘zallik insonni kamolot sari yetaklaydi”.

Abu Nasr Forobiy

San’at olamiga sayohat

San’at bizni har qadamda qurshab turadi. U tabiat, me’morchilik, milliy naqshlar, rassomlarning suratlari va mohir ustalarning ijod namunalarida yashaydi. Bu go‘zallikni ko‘rish, his qilish uchun esa atrof-muhitni diqqat bilan kuzata bilish lozim.

Bu yil siz tasviriy san’atning har xil turlari bilan tanishasiz, rassomlarning ijod yo‘li haqida ma’lumot olasiz, ifodali kompozitsiyalar yaratish, ranglar yordamida kayfiyatni yetkazish hamda o‘z g‘oyalaringizni rasmlarda aks ettirishni o‘rganasiz.

Ona diyorimizda ulg‘ayib, yetishib chiqqan buyuk olimlar va mutafakkirlar doimo ilm hamda ijodga intilganlar. Abu Rayhon Beruniy: **“Ilm – insonning eng buyuk boyligi”**, deb yozgan edi. Bu so‘zlar bizga har bir yangi kashfiyot insonni yanada donoroq qilishi, ijod esa atrofimizdagi olamni yaxshiroq anglashga yordam berishini eslatib turadi.

Ushbu darslik sizni go‘zallik, ilhom va yangi ijodiy yutuqlar olamiga boshlovchi mayoq bo‘lsin!

O‘z kuchingizga ishoning, maroq bilan ijod qiling va unutmang: har bir buyuk rassom ijod yo‘lini qachonlardir o‘zining ilk rasmini chizishdan boshlagan.



Rassom palitrasi. Tasviriy san’at nima?

Bugun siz tasviriy san’atning ajoyib olamiga sayohatingizni boshlaysiz. Yil davomida siz yon-atrofning qanchalik go‘zal ekanligini his etib, o‘z taassurotlaringizni rasmlarda aks ettirishni o‘rganasiz, taniqli rassomlarning asarlari bilan tanishib, turli xil tasviriy texnikalarni o‘zlashtirasiz.

Tasviriy san’at insonga voqealarni so‘zsiz so‘zlab berishga yordam beradi. Chiziq, rang, shakl va kompozitsiya yordamida rassomlar tabiat, odamlar, hayvonlar, voqealar va o‘z tuyg‘ularini tasvirlaydilar. Har bir rasm – butun dunyodagi odamlar tushunadigan maxsus til.



“Go‘zallik inson ko‘nglini shod etadi”.

Alisher Navoiy



“Ilmga intilish har bir inson uchun farzdir”.

Mirzo Ulug‘bek



“Inson kamolotga ilm va mehnat orqali erishadi”.

Abu Ali ibn Sino

Bu hikmatli so‘zlar atrof-olamdagi go‘zallikni ko‘ra bilish, kuzatish orqali uni yarata olish insonning komillikka erishishida yordam berishini bizga eslatib turadi. Rassom atrof-olamga diqqat bilan nazar soladi, uning o‘ziga xos jihatlarini payqaydi va o‘z taassurotlarini rasmlarda muhrlaydi.

Tasviriy san’atning bir necha **turlari** mavjud.



Grafika chiziqlar, shtrixlar va dog‘lar yordamida tasvirlash san’atidir. U qalam, ko‘mir, tush va flomaster bilan bajariladi.



Rangtasvir tasvirlarni bo‘yoqlar yordamida yaratish san’ati bo‘lib, unda rassom atrof-muhitning rangi, kayfiyati, yorug‘ligi va go‘zalligini bo‘yoqlar orqali yetkazib beradi.



Haykaltaroshlik inson qo‘li bilan loy, tosh, yog‘och va metalldan hajmli shakllar yaratish san’atidir.



Amaliy bezak san’ati maishiy buyumlarni naqsh va bezaklar bilan bezatish bo‘lib, ular hayotimizni yanada go‘zal va shinam qiladi.



Me’morchilik shaharlarga ko‘rk bag‘ishlaydigan va odamlarga uzoq yillar xizmat qiladigan binolarni loyihalash va qurish san’atidir.

Ona yurtim – O‘zbekiston!

Bugun siz ona yurtimizga bag‘ishlangan rasm chizasiz. Rasmingizda tog‘lar, kuzgi daraxt va milliy libosdagi bolalar aks etadi. O‘zbekiston tabiatining go‘zalligini, uning urf-odatlari va iliq kuz kayfiyatini ifodalashga harakat qiling.

Rasm chizish bosqichlari:


1. **Kompozitsiyani belgilab oling**. Yengil chiziqlar bilan yer, tog‘, daraxtlar hamda bolalarni chizing.
2. **Rasmni boyiting**. Kiyim va yuz detallari hamda milliy libos elementlarini qo‘shing.
3. **Fonni bo‘yang**. Osmon, tog‘lar va kuz manzarasiga rang bering.
4. **Bosh qahramonlarni bo‘yang**. Kiyimlar uchun mos chiroyli ranglarni tanlang.
5. **Ishni yakunlang**. Kuzgi barglar qo‘shing va detallarni qunt bilan ishlab chiqing.

Sizga kerak bo‘ladi:
albom varag‘i,
oddiy qalam,
o‘chirg‘ich,
rangli qalamlar.



Qalamni qattiq bosmang. Avval yengil chiziqlar bilan chizing, so‘ngra asta-sekin shakl va detallar qo‘shing. Shunda rasmingiz tartibli va ifodali chiqadi.

1



2



3



4



5



Rangtasvir janrlari


Rangtasvir – tasviriy san’at turlaridan biri. Rangtasvirchi rassom suratlarni bo‘yoq va mo‘yqalamlar yordamida yaratadi. Rangtasvirda eng asosiysi – **rang**. U rassomga surat kayfiyatini ko‘rsatib berishda yordam beradi.

Rassom **Sergey Galetaning** suratlariga diqqat bilan qarang. Rassom ranglar yordamida kayfiyatni qanday tasvirlaganiga e’tibor bering.



“Lolaqizg‘aldoqlar”

Yorqin ranglar iliqlik, shodlik va quyosh nuri hissini uyg‘otadi.



“Yoz ohangi”

Sovuq va to‘q tuslar suratni xotirjam va o‘ychan qilib ko‘rsatadi.




“Nastarin”


Nozik tuslar kishiga soflik, yengillik va oso-yishtalik baxsh etadi.

Janr – suratning mavzusi yoki mazmuni. Janr suratda nima tasvirlanganini tushunishga yordam beradi.

Manzara – tabiat tasviri. Bunday suratlarda tog‘, o‘rmon, daryo, dala, osmon va daraxtlar tasvirini ko‘rish mumkin.



Dilorom Mamedova.
“Gullar vodiysi”




Dilorom Mamedova.
“Kuzning oltin ranglari”

Natyurmort – meva, gul, idish-tovoq, kitob, o‘yinchoq, musiqiy cholg‘u kabi buyumlarning tasviri.



Sergey Galeta. “Sharqona natyurmort”

Portret – inson tasviri. Portret insonning tashqi ko‘rinishi, kayfiyati va xarakterini ko‘rsatib bera oladi.



Dilorom Mamedova. “O‘zbek malikasi”




Pyer Ogyust Renuar. “Mademuazel Iren Kaen d’Anver portreti”

Animalistik janr – hayvonlar tasviri. Hayvonlarni tasvirlaydigan rassomni animalist deb atashadi.



Robert Beytman.
“Qizilishton”



Dilorom Mamedova.
“Qaldirg‘och”

Maishiy janr – odamlar hayoti: ularning qanday ishlashi, o‘qishi, dam olishi va o‘ynashi haqidagi tasvir.



Pavel Benkov. “Dugonalar”

Tarixiy janr – o‘tmishdagi voqealar tasviri.



Dilorom Mamedova.
“Buxoro sukunati qo‘riqchisi”



Dilorom Mamedova.
“O‘tgan kunlar”

Surat tomosha qilayotganda quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling:

- Suratda nima tasvirlangan?
- Rassom qaysi ranglardan foydalangan?
- Suratda qanday kayfiyat tasvirlangan?
- Sizga ko‘proq nima yoqdi?





Yodda tuting!

Agar suratda:

- tabiatni ko‘rsangiz, bu – **manzara;**
- insonni ko‘rsangiz, bu – **portret;**
- buyumlarni ko‘rsangiz, bu – **natyurmort;**
- hayvonlarni ko‘rsangiz, bu – **animalistik janr;**
- odamlarning kundalik hayotini ko‘rsangiz, bu – **maishiy janr;**
- o‘tmish voqeasini ko‘rsangiz, bu – **tarixiy janr.**

Doira ichidagi kuz manzarasi

Kuz manzarasini noodatiy usulda – **g‘ijimlangan qog‘oz izlari** yordamida yarating. Bunday izlar xuddi paxmoq kuzgi barglarga o‘xshab qoladi.


Sizga kerak bo‘ladi:

akvarel qog‘ozi, guash, bir martalik likopcha, printer qog‘ozi, paxtali cho‘plar, qog‘oz sochiqlar.

Rasm chizish bosqichlari:

1. **Doira tayyorlang**. Akvarel qog‘oziga diametri 18–20 cm bo‘lgan doira chizing va uni qirqib oling.
2. **Izlar tushiring**. Printer qog‘ozini 4 bo‘lakka bo‘ling. Bir bo‘lagini g‘ijimlang. Uni sariq rangli guashga botirib, doiraning chetlari bo‘ylab izlar tushiring. Doiraning o‘rtasini oqligicha qoldiring. Paxtali cho‘plar yordamida to‘q sariq va qizil rangli izlar qo‘shing.
3. **Daraxtlar chizing**. To‘q jigarrang flomaster yoki jigarrang guash bilan ingichka mo‘yqalam yordamida doiraning chetlaridan markazga qarab daraxt tanalari va shoxlarini chizing.
4. **Qushlar qo‘shing**. Doiraning oqligicha qolgan o‘rta qismiga qora flomaster yordamida kichkina qushchalarni chizib qo‘ying.


1




2



3



4



5



Manzara nima?

Manzara – tabiat tasviri.
Manzarada turli fasllarga xos **tog‘lar, daryolar, dalalar, o‘rmonlar, bog‘lar, dashtlar, osmon, bulutlarni** ko‘rish mumkin.

Ona yurt inson yashaydigan, ulg‘ayadigan, o‘qiydigan va tabiat go‘zalligini kuzatadigan maskandir.

O‘zbekiston tabiati juda rang-barang. Bu yerda baland tog‘lar, serquyosh tekisliklar, daryolar, bog‘lar va dashtlarni ko‘rish mumkin. Rassomlar ko‘pincha o‘z yeriga bo‘lgan muhabbatini ona yurt tabiatini tasvirlash orqali ko‘rsatib berishadi.

Rassom manzarani qanday chizadi?

Manzara chizganda hamma narsani qog‘ozda to‘g‘ri joylashtirish muhim.

- **Uzoq plan** – uzoqda joylashgan narsalar: tog‘lar, osmon, bulutlar.
- **O‘rta plan** – o‘rtada joylashgan narsalar: tepaliklar, daryo, kichikroq daraxtlar.
- **Yaqin plan** – bizga eng yaqin turgan narsalar: katta daraxtlar, butalar, toshlar, o‘t-o‘lanlar.



Uzoqdagi narsalarni rassom **kichikroq** va **ochroq**, yaqindagilarini esa **yirikroq** va **yorqinroq** rangda tasvirlaydi.

Manzarada rang


Rang tabiat kayfiyatini tasvirlashga yordam beradi.

Moviy rang osmon va daryo uchun mos keladi.


Ko‘k va **binafsha** tusdagi ranglar tog‘larni ko‘rsatishga yordam beradi.

Sariq, **to‘q sariq** va tilla tusdagi ranglar kuzni ifodalaydi.

Yashil rang o‘t, buta va daraxtlar uchun ishlatiladi.



Ona yurt rassomi



O‘rol Tansiqboyev
1904–1974

O‘rol Tansiqboyev – O‘zbekistondagi eng mashhur rassomlardan biri. U Toshkentda tug‘ilgan va bolaligidan ona yurt tabiatini kuzatishni yaxshi ko‘rgan. Rassom O‘zbekiston bo‘ylab ko‘p sayohat qilgan, tog‘lar, daryolar, dashtlar va vodiylarning xomaki rasmlarini chizgan, so‘ngra ulardan katta suratlar yaratgan.

O‘. Tansiqboyev **manzara** chizishni ayniqsa yaxshi ko‘rgan. Uning asarlarida yurtimizning ulug‘vor tog‘lari, keng daryolari, gulga burkangan bog‘lari va poyonsiz kengliklarini ko‘rish mumkin. Rassom tabiat go‘zalligini yorqin bo‘yoqlar va yorug‘lik yordamida tasvirlay olgan.

Qiziq tomoni shundaki, u ko‘pgina suratlarini ustaxonada emas, balki bevosita tabiat qo‘ynida chizgan. Rassomlar bunday ishni **plener** *(fransuzcha plein air – “ochiq havo”)* deb atashadi. U osmon rangining ertalab, kunduzi va kechqurun qanday o‘zgarishini kuzatgan va buni o‘z asarlarida ko‘rsatishga harakat qilgan.



O‘rol Tansiqboyev. “Tog‘larda tong”

O‘rol Tansiqboyevning suratlari bugungi kunda O‘zbekiston va boshqa davlatlar muzeylarida saqlanmoqda.

Uning asarlari odamlarga ona yurt go‘zalligini ko‘rish va tabiatga bo‘lgan muhabbatni his qilishga yordam beradi.

Ishni boshlashdan oldin derazadan tashqariga qarab, tabiatga diqqat bilan boqing yoki o‘zingizga tanish bo‘lgan biror manzarani eslang. Bugun osmon qanday rangda? Daraxtlar, maysalar yoki bulutlarda qanday tuslarni ko‘rish mumkin? Haqiqiy rassomlar bunday detallarni doim payqashadi va ulardan o‘z suratlarida foydalanishadi.





Agar siz rassom bo‘lganingizda, ona yurtingizning qaysi go‘shasini birinchi bo‘lib chizishni istardingiz? Nima uchun?

1. Rassom qaysi bo‘yoqlardan foydalangan?
2. Surati qanday kayfiyatni ifodalaydi?
3. Sizningcha, rassom nima uchun tabiatni bunchalik yaxshi ko‘rgan?

Chimyon tog‘larida

Chimyon tog‘lari – O‘zbekistonning eng go‘zal go‘shalaridan biri. Oltin kuz kelishi bilan uning yonbag‘irlari tillarang va alvon liboslarga burkanadi, viqorli adirlar quchog‘ida esa billurdek tiniq tog‘ daryosi jilvalanib oqadi.

Bugun siz **kuzgi manzara** rasmini chizasiz. Ishingizda tog‘, kichik daryo, tepalik, daraxt, buta va tosh kabilar o‘z ifodasini topishi lozim.

Sizga kerak bo‘ladi:

albom varag‘i, oddiy qalam, o‘chirg‘ich, guash yoki akvarel bo‘yoqlari, mo‘yqalam, suv solingan stakancha, qog‘oz sochiqlar.


Rasm chizish bosqichlari:

1. **Xomaki reja tayyorlang**. Yengil chiziqlar bilan tog‘lar, bulutlar, tepaliklar, daryo, daraxtlar va toshlarning o‘rnini belgilang.
2. **Osmon va tog‘larni bo‘yang**. Manzaraning kengligi va chuqurligini tasvirlashga yordam beradigan tuslarni tanlang.
3. **Tepaliklar va daryoni bo‘yang**. Tepaliklarni sariq-yashil va tillarang tuslarga, daryoni esa moviy rangga bo‘yang.
4. **Daraxtlar va butalarni qo‘shing**. Kuzgi ranglardan foydalaning.
5. **Ishni yakunlang**. Toshlarni kulrangga bo‘yang. Suv yuzasiga yorqin chiziqlar, o‘tlar uchun esa kichik surtmalar chizib chiqing.

1



2



3



4



Noodatiy usulda chizish. Kuz bo‘yoqlari

Kuz – yilning go‘zal fasli. Daraxtlardagi barglar **sariq**, **to‘q sariq**, **qizil** va **tillarang** tuslarga kiradi. Kuzda tog‘lar o‘zgacha go‘zal va jozibali ko‘rinadi.

Bugun siz kuz faslini noodatiy usulda chizasiz. Tog‘larni yirtilgan qog‘oz parchalari va qalam kukuni, kuzgi daraxtlarni esa barg izlari yordamida hosil qilasiz. Bu ishda siz kuz tabiatini: **tog‘lar**, **kuzgi daraxtlar**, **quyosh** va **qushlarni** ko‘rsatasiz.

Sizga kerak bo‘ladi:

albom varag‘i, yirtib olish uchun kichikroq varaq, oddiy qalam, turli shakldagi kuzgi barglar, guash, mo‘yqalam, mumli bo‘rlar, qog‘oz sochiqlar, suv solingan stakancha, paxtali cho‘plar.



Tog‘lar uzoqroq ko‘rinishi uchun ularni ochroq va unchalik ko‘zga tashlanmaydigan qilib ko‘rsating. Yaqindagi tog‘larni esa to‘qroq qilish mumkin. Bunday usul rasmda makon chuqurligini tasvirlashga yordam beradi.

Rasm chizish bosqichlari:

1. Kichikroq qog‘oz varag‘ini olib, uning chetini notekis qilib yirting va asosiy varaqqa joylashtiring. Qalam uchini qirib, kukunini qog‘oz sochiq bilan andaza cheti bo‘ylab ishqalang. Shunda **birinchi tog‘ cho‘qqisi** hosil bo‘ladi.
2. Yirtilgan qog‘oz chetini birinchisidan pastroqqa qo‘ying va yana qalam kukunini ishqalang. Shunda **ikkinchi tog‘** hosil bo‘ladi.
3. Mumli bo‘rlar yordamida kalta shtrixlar bilan **o‘tlarni chizing**.
4. Daraxt bargiga bo‘yoq surting. Uni qog‘ozga bosib, **iz qoldiring**. Har xil bo‘yoqlardan foydalaning. Daraxt tanasini ham chizing.
5. **Ishni yakunlang**. Turli barglar bilan yana bir nechta iz hosil qiling. Paxtali cho‘p bilan to‘kilgan barglar, shuningdek, quyosh va kichik qushlarni qo‘shib qo‘ying.


1



2




6



3



4



5



Manzara. Sahrodagi karvon

O‘zbekistonda shunday hayratlanarli cho‘l-u biyobon manzaralari borki, ularda bepoyon kengliklar, qum barxanlari, jazirama quyosh va kun botishining yorqin ranglarini ko‘rish mumkin.

Cho‘l – yurtimiz tabiatining bir qismi. O‘zbekistonda **Qizilqum** va **Qoraqum** cho‘llari joylashgan. Bu yerda g‘ayritabiiy ranglar: **sariq**, **to‘q sariq**, **qizil**, **jigarrang** va **tillarang** tuslarni ko‘rish mumkin. Cho‘l ayniqsa oqshomda, Quyosh ufqqa botayotib, osmon olovrang tusga kirgan vaqtda juda go‘zal ko‘rinadi.

Qadim zamonlarda O‘zbekiston hududi orqali **Buyuk ipak yo‘li** o‘tgan. Bu yo‘ldan tuya karvonlari harakatlangan. Sayyohlar ipak, ziravor, idish-tovoq, mato kabi turli xil mollar tashishgan. Shuning uchun sahrodagi karvon timsoli bizga yurtimiz tarixi, sayohatlar, savdo-sotiq va qadimiy shaharlarimiz – Samarqand, Buxoro hamda Xiva haqida eslatib turadi.



Tuya **sahro kemasi** deb ataladi. O‘zining chidamliligi tufayli u jazirama qumliklarda sayohatchilarning ishonchli hamrohiga aylangan.






Manzara syujetning bor go‘zalligini ko‘rsatib beradi. Cho‘l manzarasida issiq quyosh, tillarang qum, cheksiz osmon va qadimgi karvon izlarini ko‘rish mumkin.

Bugun siz **cho‘l manzarasini** chizasiz. Ishda nafaqat narsalarni, balki kayfiyatni ham: cho‘l sukunati, iliq oqshom, karvon harakati va tabiat go‘zalligini ko‘rsatish muhim.

Sizga kerak bo‘ladi:


albom varag‘i, oddiy qalam, o‘chirg‘ich, guash, mo‘yqalamlar, suv solingan stakancha, qog‘oz sochiqlar.

1



Ishni fondan boshlang. Osmonning pastki qismini sariq rangga bo‘yang, so‘ngra to‘q sariq va qizil ranglarni qo‘shing. Bo‘yoqlarni biroz o‘zaro aralashtirish mumkin, shunda chiroyli shafaq hosil bo‘ladi.

2



Varaqning yuqori qismiga sponj yoki quruq mo‘yqalam yordamida yengil tillarang bulutlarni **qo‘shing**. Ular osmonni jonli va issiq qilib ko‘rsatadi.



Avval fon, undan keyin esa siluetlar, ya’ni narsalar yoki qiyofaning soyasiga o‘xshatib chizilgan shakl ishlanadi. Agar birinchi bo‘lib tuyalar chizilsa, osmonning yorqin ranglari tasodifan ularga tegib ketishi mumkin. Siluetlar qora rangda, fon esa yorqin va ochroq bo‘lishi kerak. Shunda karvon yaqqol ajralib turadi.

3



Yer, ya’ni qumli barxanni chizing. Jigarrang, to‘q jigarrang va biroz to‘q sariq ranglardan foydalaning. Barxan chizig‘i silliq va ravon bo‘lishi kerak.

4



Fon quriganidan so‘ng, ingichka mo‘yqalam bilan tuyalar va odamlarning **siluetlarini chizing**. Ularni qora yoki to‘q jigarrang bo‘yoq bilan bo‘yang.

5



Osmonga mayda nuqtalar va ingichka oyni **qo‘shing**. Ammo osmonni ular bilan haddan tashqari to‘ldirib yubormang, shunda rasm chiroyli chiqadi.

Natyurmort

Natyurmort tasviriy san’at janri bo‘lib, unda meva, gul, idish-tovoq, kitob, mato va boshqa shunga o‘xshash jonsiz narsalar tasvirlanadi.

Akmal Ikromjonov – O‘zbekistonning taniqli rassomi. U Toshkentda tug‘ilgan va bolaligidan rasm chizishni yaxshi ko‘rgan. Rassom ko‘plab go‘zal suratlar yaratib, butun hayotini san’atga baxsh etgan.



Akmal Ikromjonov
1952

Uning ijodida **natyurmortlar** alohida o‘rin tutadi. Suratlarida yorqin mevalar, gullar, milliy idishlar va maishiy buyumlarni ko‘rish mumkin. Rassom eng oddiy narsalarning ham go‘zalligini payqab, uni bo‘yoqlar yordamida aks ettira oladi.

Akmal Ikromjonov ko‘p yillardan buyon yosh rassomlarga saboq berib, ularning iste’dodini yuzaga chiqarishga hissa qo‘shib kelmoqda. Uning asarlari muzeylar va shaxsiy kolleksiyalarda saqlanadi.

- Rassom o‘z natyurmortlarida ko‘pincha O‘zbekistonning anor, qovun, uzum va boshqa ne’matlarini tasvirlaydi.
- U hatto eng oddiy buyumlar ham surat qahramoniga aylanishi mumkin deb hisoblaydi.
- Uning ko‘plab shogirdlari ham taniqli rassomlar bo‘lib yetishgan.
- Akmal Ikromjonovning suratlari yorqin ranglari va iliq kayfiyati bilan ajralib turadi.



“Anor sharbati va anorlar”



“Gulli natyurmort”

1. Rassom o‘z natyurmortlarida ko‘proq nimalarni tasvirlaydi?
2. Uning suratlaridagi qaysi narsalar sizga ko‘proq yoqdi? Nima uchun?
3. Sizningcha, nega rassom oddiy narsalar ham surat qahramoni bo‘la oladi deb hisoblaydi?



Go‘zal natyurmort yaratish uchun narsalarni diqqat bilan kuzatish, ularning shakli, rangi va qanday joylashganiga e’tibor berish lozim.

Anor butasi natyurmortini chizing.


Sizga kerak bo‘ladi:

albom varag‘i, oddiy qalam, o‘chirg‘ich, guash yoki akvarel bo‘yoqlari, mo‘yqalam, suv solingan stakancha, qog‘oz sochiqlar.

Rasm chizish bosqichlari:

1. **Yengil chiziqlar bilan** umumiy kompozitsiya: yirik anorlar, shox, barglar va gullarni belgilab oling.
2. **Shox, barglar va gullarni qo‘shing**. Ularni varaqqa shunday joylashtiringki, ishingiz jonli va chiroyli chiqsin.
3. **Fonni guash yoki akvarel bilan bo‘yang**. Fon uchun yashil, firuza yoki to‘q yashil ranglarni tanlash mumkin.
4. **Anorlarni** qizil, to‘q qizil, to‘q sariq va sariq ranglar bilan **bo‘yang**. Mevalar hajmli ko‘rinishi uchun ularga och rangli jilolar qo‘shing.
5. **Barglarni yashil rangning turli tuslariga**, gullarni esa oq, pushti va och pushti ranglarga bo‘yang.
6. Soya, barg tomirlari, och rangli shtrixlar va **boshqa mayda detallarni qo‘shing**. Bu natyurmortni ifodali va mukammal ko‘rinishga keltiradi.

1



2



3



4



“Pishgan nok” natyurmorti

Natyurmort bilan tanishishda davom etamiz. Biz allaqachon bilamizki, natyurmortda rassomlar turli narsalar: **mevalar**, **sabzavotlar**, **gullar** va **idishlarni** tasvirlashadi.



Nok – chiroyli va mazali meva. O‘zbekiston bog‘larida nokning yashil, sariq, tillarang, qizg‘ish kabi rang-barang tuslari bilan kishini hayratga soladigan turli navlari yetishtiriladi. Shuning uchun nok ko‘pincha rasm chizish uchun qiziqarli obyektga aylanadi. Uning shakli noodatiy: pastki qismi yumaloq va keng bo‘lib, yuqoriga qarab torayib boradi. Agar nokka diqqat bilan qarasangiz, u hech qachon bir xil rangda bo‘lmasligini payqaysiz. Unda sariq, yashil, to‘q sariq va jigarrang tuslar birlashib ketadi.


Natyurmort buyumlarga sinchkovlik bilan qarashni o‘rgatadi. Hattoki oddiy nok ham, agar uning shakli, rangi, soyasi va mayda detallariga e’tibor berilsa, juda go‘zal ko‘rinishi mumkin.

Bugun siz **Pishgan nok** natyurmortini chizasiz.

Rasm chizish bosqichlari:

1. **Xomaki chizgi**. Varaqni tik holatda qo‘ying. Yengil chiziqlar bilan bitta katta nok, uning yarmi hamda bargli novdalarni belgilab oling.
2. Avval **fonni tayyorlab oling**: yuqori qismini och sariq, stolni esa siyohrang yoki pushtiroq rangda qiling. So‘ngra **noklarni bo‘yang**. Sariq, yashil, to‘q sariq va biroz jigarrang tuslardan foydalaning.
3. **Detallashtirish**. Nok hajmli ko‘rinishi uchun bir rangning turli tuslarini qo‘llang: yorug‘lik tushib turgan joyga och, soyaga esa to‘q tus bering. Katta nokning jilosini ko‘rsating. Yarimta nokni och, urug‘larini esa jigarrang bo‘yoq bilan bo‘yang. Barglar uchun yashil rangning har xil tuslaridan foydalaning.
4. **Yakunlash**. Mayda detallarni qo‘shing: noklar hajmli ko‘rinishi uchun ularning tagiga soya chizib qo‘ying.

1



2



3



4



1-nazorat ishi

“Kuz ne’matlari” natyurmorti

O‘tgan darslarda siz natyurmort chizishni o‘rgangan edingiz: narsalarni varaqqa joylashtirdingiz, ularning shakli, rangi, yorug‘ligi va soyasini tasvirladingiz. Bugun siz **nazorat ishini** bajarasiz va nimalarni o‘rganganingizni ko‘rsatib berasiz.


Natyurmortda asosiy predmet **oshqovoq** bo‘ladi. Uning yoniga kichikroq nok, kuzgi barglar va novdachani chizish mumkin. Bunday ish kuz mavzusiga to‘g‘ri keladi: to‘q sariq, sariq va jigarrang tuslar stolning to‘q binafsha yoki siyohrang yuzasiga juda mos tushadi.




Rasm chizish bosqichlari:

1. **Xomaki chizgi**. Varaqni tik holatda qo‘ying. Yengil chiziqlar bilan katta oshqovoq, nok, barglar va stol chizig‘ini belgilab oling.
2. **Oshqovoqning shaklini chizing**. Uning tilimlarini silliq, bo‘ylama chiziqlar bilan ko‘rsating. Tepa qismiga yo‘g‘on, egik band chizing.
3. Oshqovoqning **yoniga kichikroq nok** chizing. Varaqning pastki qismiga kuzgi barglar yoki novdacha qo‘shib qo‘ying.
4. **Fonni bo‘yang**. Yuqori qismini sariq, stolni esa binafsha rangga bo‘yash mumkin.
5. **Detallashtirish**. Oshqovoqni to‘q sariq tusda bo‘yang. Uning bo‘rtib chiqqan qismlariga och rangli tus bering, tilimlarining orasiga esa to‘q sariq yoki jigarrang tus qo‘shing.
6. **Nokni** sariq yoki yashil rangga **bo‘yang**. Biroz jilo va soya bering.
7. **Barglarni** sariq, to‘q sariq, qizil va jigarrang bo‘yoqlar bilan **bo‘yang**. Barg tomirlarini ingichka chiziqlar bilan ko‘rsatish mumkin.
8. **Yakunlash**. Oshqovoq va nokning tagiga soya chizib qo‘ying.

1



2



3



4



Kungaboqarlar. Vinsent van Gog surati motivlari asosida

Kungaboqar – quyosh, harorat va shodlik ramzi. Mashhur niderlandiyalik rassom **Vinsent van Gog** bu gullarni juda yaxshi ko‘rgan va bir nechta “Kungaboqarlar” nomli suratlar turkumini yaratgan. U gullarni yorqin **sariq**, **to‘q sariq** va **tillarang** tuslardan foydalangan holda yirik bo‘yoq surtmalari bilan chizgan. Shuning evaziga uning kungaboqarlari xuddi nur taratayotgandek tuyuladi va barchaga xush kayfiyat baxsh etadi.



Vinsent van Gog
1853–1890

“Kungaboqarlar” surati 1888-yilda chizilgan. **Van Gog** uni do‘stiga sovg‘a qilgan va do‘stining xonasini faqat o‘z asarlari bilan bezatishni orzu qilgan.



Suratda biz kungaboqarlar guldastasini ko‘ramiz. Ayrim gullar qiyg‘os ochilgan, boshqalari esa biroz egilgan. Ammo ularning barchasi iliqlik, ezgulik va hayot uchun shukronalik hissini uyg‘otadi.

Sariq va tillarang tuslar suratni nurga to‘ldiradi, qalin bo‘yoq surtmalari esa gullarni hajmli va jonli qilib ko‘rsatadi. Ushbu asar bejiz dunyodagi eng mashhur suratlardan biriga aylanmagan.

Vinsent van Gog kungaboqarlar tasvirlangan bir qancha suratlar chizgan. Bugungi kunda ular dunyodagi eng mashhur san’at asarlari qatoriga kiradi.


1. Van Gog “Kungaboqarlar” nomli suratida qaysi ranglardan foydalangan?
2. Surat qanday kayfiyat bag‘ishlaydi?
3. Nima uchun kungaboqarni “quyosh guli” deyishadi?

Bugun siz yorqin bo‘yoqlar va guash surtmalari yordamida kungaboqarlar aks etgan o‘z manzarangizni chizasiz.

Sizga kerak bo‘ladi:


albom varag‘i, oddiy qalam, o‘chirg‘ich, guash, mo‘yqalamlar, suv solingan stakancha, qog‘oz sochiqlar.

1




Kompozitsiyani **belgilab oling**.

2



Detallarni **chizib chiqing**.

3



Fon **ustida ishlang.**
Kungaboqarlarni **bo‘yang**.

4



Barglar, poyalar, maysalar va to‘siqni **bo‘yang**.